O'zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish uchun kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, keyingi yillarda davlatimiz tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishning institutsional asoslari yaratildi. Biroq, mamlakatizda kapital bozorida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha hanuzgacha yagona dasturning mavjud emasligi, qimmatli qog'ozlar bozorini faoliyatining samarali tashkil etilmaganligi, xususan ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini likvidligi ta'minlanmaganligi ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoriga investorlarni jalb qilishga to'sqinlik qilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-sonli "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-sonli "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" va 2023-yil 29-aprelagi PQ-102-sonli "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish mexanizmi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, kapital bozorining uyg'un faoliyati va uning barcha segmentlari rivojlanishini ta'minlash orqali 2023-yil yakuniga qadar respublika va hududiy investitsiya dasturlari doirasida loyihalarning qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali moliyalashtirilgan qismini 5 foizga yetkazish ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish olib kelinadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda dunyo olimlarning ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bo'yicha qarashlari turlicha bo'lishi mumkin, lekin umuman olganda, ular kapital bozorlarining asosiy faoliyatida uning ahamiyatli jahatlarini tan olishadi. Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bu qimmatli qog'ozlar birlamchi bozorda keyingi jarayon hisoblandi. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlari to'g'ridan-to'g'ri investorlardan kapital jalb qilish orqali qimmatli qog'ozlarni chiqarilishi birlamchi qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Ikkilamchi qimmatli qog'ozlarni bozori esa, qimmatli qog'ozlarni chiqarilgandan so'ng, investorlar o'rtasida mavjud moliyaviy aktivlarni, xususan, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishni anglatadi.

Dunyo olimlari ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha umumiy qarashlari va asosiy fikrlari quyidagilardan iborat hisoblandi:

Likvidlikni oshirish: Olimlarning fikricha ko'pincha investorlarga likvidlikni ta'minlashda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorning rolini ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydilar. Ushbu qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarga o'ziga tegishli qimmatli qog'ozlarini osongina sotib olish va sotish imkonini beradigan bozor hisoblandi. Bu esa, o'z navbatida, investorlar uchun ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etishni yanada jozibador qiladi. Shuningdek, investitsiyalarni tezda naqd pulga aylantirish qobiliyati investorlar va aksiyadorlik jamiyatlari uchun juda muhim hisoblanadi.

Narxlarni aniqlash: Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori narxlarni aniqlash mexanizmi sifatida qaraladi. Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorda qimmatli qog'ozlarning narxi talab va taklif kuchlari tomonidan belgilanadi. Bu esa, o'z navbatida, aktivlarning kutilayotgan qiymati haqida muhim ma'lumotlarni aniqlashga xizmat qiladi. Dunyo olimlari ko'pincha o'zgaruvchan iqtisodiy va moliyaviy sharoitlarni aks ettirishda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorning samaradorligini alohida ta'kidlab o'tganlar.

Kapitalni taqsimlash: Ba'zi olimlar ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori kapitalni samarali taqsimlashda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori investorlarga mavjud qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish imkonini berish orqali kapital o'sishi va innovatsiya potentsiali eng yuqori bo'lgan joyga oqib chiqishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy rivojlanishga yordam berishiga olib keladi.

Risklarni boshqarish: Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini investorlarga investitsiya tavakkalchiligini boshqarish imkoniyatini beradi. Investorlar o'zgaruvchan bozor sharoitlariga javoban o'z portfellarini diversifikatsiya qilishlari va investitsiyalardan amalga oshirishda portfel nazariyasini amalga oshirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, moliyaviy tizim uchun zarur vosita hisoblanadi.

Tartibga solish mexanizmi: Olimlar nazarida, shuningdek, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori adolat va shaffoflikni ta'minlash uchun tartibga soluvchi nazoratni amalga oshirishini tan olishadi. Bozorni manipulyatsiya qilish, insayder savdosi va boshqa firibgarlik harakatlari bilan bog'liq havotirlar bozor yaxlitligini saqlash uchun me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqishga olib keldi.

Bozor samaradorligi: Bir nechta olimlar ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorning samaradorligi haqida bahslashadilar. Samarali bozor gipotezasi (Efficient Market Hypothesis) ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozordagi aktivlar narxlari barcha mavjud ma'lumotlarni to'liq aks ettirishini taklif qiladi. Bu esa, investorlarning bozordan doimiy ravishda ustun turishini qiyinlashtiradi. Biroq, bu gipoteza tanqidga duch keldi, ba'zilar bozorlar mukammal darajada samaraliroq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Iqtisodiy barqarorlikdagi roli: Olimlar ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori umumiy iqtisodiy barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatishini tadqiqot olib borganlar. Xususan, ularning nazarida iqtisodiy inqiroz davrida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori o'zgaruvchanlik va likvidlik muammolariga duch kelishi natijasida, bu esa, o'z navbatida kengroq iqtisodiy oqibatlariga olib kelishi o'zlarining tadqiqotlarida ko'rsatib o'tganlar.

Bugungi kunda xorijlik olimlarning ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bo'yicha bir nechta tadqiqotlar mavjud hisoblanadi. Xorijlik iqtisodchi olimlardan Morin O'Xaraning tadqiqoti qimmatli qog'ozlar bozorning mikro-tuzilmasiga modellariga bag'ishlangan bo'lib, uning fikricha, qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlik, bozor savdosini erkinligi, bozorni tuzilishi va bozor mikro-tuzilmasi eng muhim elementlari hisoblanadi. Uning nazarida, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida qimmatli qog'ozlarning savdo mexanizmini va qimmatli qog'ozlarni qiymatini shakllatirishda bozorning mikro-tuzilmasi eng asosiy o'rin egallashini ta'kidlagan. Shuningdek, uning nazarida, bozor mikro-tuzilmasi – bu aniq savdo qoidalari bo'yicha aktivlarni ayirboshlash jarayoni va natijalarini o'rganishdir ^[1].

Iqtisodchi olimlardan bir hisoblangan Yudjin F. Fama tadqiqotida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida axborot ma'lumotlari eng asosiy ko'rsatkich ekanligi ta'kidlagan. Uning fikricha, agar har bir daqiqadagi aksiyalar narxlari kelajakdagi qiymatlar haqidagi barcha mavjud ma'lumotlarni o'z ichiga olsa, axborot ishonchiligi ta'minlash lozimligi tadqiqotida ko'rsatadi. Axborot ishonchiligi bozordagi aktivlarni narxi bilan bog'liq bo'lmasa, bozordagi aktivlarning kelajakdagi qiymatini yuqori bo'ladi va ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorning professional ishtirokchilari ushbu axborotni sotib olishga harakat qiladilar. Buning natijasida, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida qimmatli qog'ozlarning qiymatini bilan bog'liq axborotlar to'liq aks ettirmaguncha narxni oshib borishini tadqiqotida o'z aksini topgan ^[2].



Terri Fuko, Marko Pagano va Aylsa Roellarning tadqiqotiga ko'ra qimmatli qog'ozlarni likvidligi va narxlarini aniqlash orqali ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi aktivlarning narxlarini aniqlashda muhim hisoblanishi ko'rsatib berganlar. Xususan, qimmatli qog'ozlar bozorida hamma ishtirokchilar ham bir vaqtning o'zida mavjud bo'lmasligi, hattoki cheklangan miqdordagi ishtirokchilar ham bozordagi qimmatli qog'ozlar haqida juda xilma-xil ma'lumotlarga ega ekanligi natijasida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi aktivlarning bahosi shakllanishi asta-sekin bo'lishini aniqlaganlar. Shunday qilib, qimmatli qog'ozlarningning haqiqiy tranzaksiya narxi uning asosiy qiymatiga ta'sir etmasligi mumkin, sababi qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq ma'lumotlar to'liq investorlar tomonidan baholanadi. Bundan tashqari, ular bozor mikrotuzilmasida ham tadqiqot olib borib, qimmatli qog'ozlar narxini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli nazariy tushunchalar va empirik tadqiqotlarga tayangan holda ikkilamchi qimmatli qog'ozlarni bozoridagi aktivlarni likvidlik va narxlarini aniqlash aktivlar bilan bog'liq narxga tegishli ma'lumotlar bozorga ommaviy e'lon orqali emas, balki savdo bosimi orqali aniqlanishi aktivlarning likvidligi past darajada bo'lishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini aktivlari vaqt o'tishi bilan likvidlik o'zgaradi. Shuningdek, yirik savdolar narxlarini yuqoriga yoki pastga siljitadi va ushbu narxlar o'zgarishi orqaga qaytariladi. Buning natijasida, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar savdosining konsentratsiyasini amalga oshiriladi. O'z navbatida, treyderlar o'zlarining mo'ljallangan savdolarini bajonidil amalga oshiradilar, biroq boshqa ijrokorlar esa ularni yashirishadi. Bu esa, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi aktivlarni arbitraj narxlarini vaqtinchalik o'zgarishlarga olib keladi [3].

Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlardan Yakov Amixud va Xaim Mendelsonlarning tadqiqotiga ko'ra ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi moliyaviy instrumentlarning likvidlik darajasi, likvidlik riskini baholadi va empirik tadqiqotlarida likvidlikning aktivlar narxiga ta'sirini statistik jihatdan muhim va iqtisodiy jihatdan muhim deb ta'kidladilar. Shuningdek, an'anaviy risk o'lchovlari va aktivlarning xususiyatlarini nazorat qilishni nazarda tutganlar. Ularning fikricha, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi likvidlikka asoslangan aktivlarning bahosi empirik tadqiqotlarini amalga oshirishda aksiyalar daromadlariga va aksiyalarning likvidligining pasayishiga hamda aksiyaning kutilayotgan daromadiga ta'sir qiluvchi omillarni ta'sirini o'rganish maqsadga muvofiqligi ko'rsatib o'tganlar [4].

Xorijlik olimlardan Marko Avelyaneda va Sasha Stoykovlar ikkilamchi kapital bozorlarida algoritmik savdoning strategiyalari va ularning ikkilamchi kapital bozoriga ta'sirini o'rganadi. Ularning nazarida, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi dillerlarning roli ta'minlash lozim, sababi dillerlar aktivlarni narxlarini kotirovka qilish orqali birjadagi likvidlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ular qimmatli qog'ozlar bozoridagi aktivlarni sotib olishga va sotishga tayyor turadi. An'anaga ko'ra, bu rolni marketmeyker va ixtisoslashgan professional ishtirokchilar amalga oshirmoqda. So'nggi yillarda elektron birjalarning rivojlanishi natijasida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi narxlarini keskin tebranishi kuzatilmoqda. Shu boisdan, ular tadqiqotida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi narxlarini tebranishini barqarorligi ta'minlash maqsadida savdolarning strategiyalarining algoritimini taklif qildilar [5].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan biri Sh.Sh. Shoxazamiy doktorlik dissertatsiyasi ishida fond bozoridagi moliyaviy hisob-kitoblar kabi masalalarni o'rgangan bo'lsada, fond bozori aktivlarini baholash modelilar hisob-kitoblariga alohida to'xtalib o'tmagan [6]. Sh.Sh. Shohazamiy qimmatli qog'ozlarning tahlilini takomillashtirish uchun aktivlarni baholash modellari nazariyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir, deb ta'kidlagan [7]. Qimmatli qog'ozlar va fond bozori borasida yetuk mahalliy iqtisodchi olimlardan yana biri L. I. Butikov ham doktorlik dissertatsiyasi ishida O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishidagi muammolarini hal qilish yo'llarini ko'rsatib bergan [8]. N. G'. Karimov o'zining doktorlik dissertatsiyasi ishida O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozoriga to'xtalib, investitsion faoliyatni qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish masalalari yo'llarini ochib bergan [9].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan izchil islohotlar boshqa sohalar kabi ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining ham rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Uning rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari o'tish davriga mansub bo'lgan O'zbekistonning tanlagan rivojlanish modeliga asoslangan. O'zbekistonning iqtisodiyotini yanada rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari sifatida belgilangan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb qilish va sanoat jihatidan o'sishni ta'minlashda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining roli va funksiyalari katta ahamiyatga ega. Chunki, jahon amaliyotidan ma'lumki, aynan ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori milliy iqtisodiyotning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligi, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash uchun investitsiyalarni jalb qilish, real sektorni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda va umuman iqtisodiyotda barqaror o'sishni rag'batlantirish maqsadida moliyaviy resurslarni jalb qilishning samarali mexanizmidir.


Hozirgi kunda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi yangi bosqichga ko'tarilgan bo'lib, bunda mamlakatda amalga oshirilayotgan bir qator iqtisodiy islohotlar ta'siri ijobiy bo'lmoqda. Prezidentimiz



Sh. M. Mirziyoyev 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF–6207-sonli Farmoniga asosan kapital bozorining raqobatbardoshligini oshirish va uning kapitallashuvini 2023-yil yakuniga qadar 45 trln so‘mga yetkazish, bank tomonidan kreditlashga muqobil bo‘lgan samarali moliyalashtirish mexanizmini yaratishda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish kopsepsiyasining ishlab chiqilishi ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida aksiyalar bozorining rivojlanishiga zamin yaratilmoqda. Biroq, O‘zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish bo‘yicha muammolar hali o‘z ilmiy va amaliy yechimini to‘la ravishda topgani yo‘q. Ushbu muammolar sifatida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aktivlarining likvidligi, ularning likvidligi ta‘minlash orqali, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoriga investitsiyalarni jalb qilish va sanoat ishlab chiqarish jihatidan yuqori sur‘atlarda o‘shishni keltirishi mumkin. Bizning nazarimizda mazkur muammolarni hal qilishda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi moliyaviy aktivlarning likvidligi to‘liq ravishda ta‘minlanmayotganligi hisoblanadi. Chunki, jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqoridagi muammolarni hal qilishning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lgan ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi moliyaviy aktivlarini likvidligi yuqori bo‘lishi asosiy maqsadi vaqtinchalik bo‘sh turgan resurslarni jalb qilish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishning o‘shishini rag‘batlantirishni ta‘minlashdan iboratdir.

Afsuski, ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasidagi qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiyotimizga chambarchas bog‘lanmagan. Mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozoridagi indeksning ko‘tarilishi yoki tushishi milliy iqtisodiyotimiz sur‘atining ko‘tarilishi yoki pasayishini izohlamaydi. Rivojlangan davlatlarda esa, qimmatli qog‘ozlar bozori indeksining tushishi yoki ko‘tarilishi iqtisodiyotining tushayotgani yoki ko‘tarilayotganligini ko‘rsatadi, ularda qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiyotning barometri hisoblanadi.

Birja savdo aylanmasining ortib borishi, o‘z navbatida, qimmatli qog‘ozlar bozorining jozibadorligi ortib borayotganligidan dalolat beradi. Rivojlangan davlatlar qimmatli qog‘ozlar bozoridagi moliyaviy aktivlar keskin tebranishga ega bo‘lib, bu holatni mamlakatimiz qimmatli qog‘ozlar bozorida unchalik sezilarli emas. Shunga qaramasdan aytish mumkinki, mamlakatimiz fond bozorining birja aylanmasi yildan – yilga o‘shib borish tendensiyasini ega. Biz buni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm: “Toshkent” Respublika fond birjasi savdo aylanmasi, mlrd. so‘m (2018–2022-yillar)¹


1-rasmdagi ma‘lumotlardan ko‘rish mumkinki, 2018-yilda fond birjasida savdo aylanmasi 687,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib u 1,56 barobarga, 248,48 mlrd. so‘mgacha keskin kamayib ketgan. Bunga sabab, 2019-yilning so‘nggi kvartalida banklar qimmatli qog‘ozlari bilan amalga oshirilgan bitimlar hajmi sezilarli darajada pasayganligi, ular bilan tuzilgan bitimlar summasi tarmoqlar kesimida 2019-yilda amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi bo‘yicha 72,81% ni yoki 319,5 mlrd so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, eng likvidli qimmatli qog‘ozlar bo‘lib 2019-yilda qurilish, sanoat va bank sohasida faoliyat yuritayotgan emitentlar bo‘lib, umumiy hajmdan qurilish sohasidagi emitentlar qimmatli qog‘ozlari bilan 37,88% dan iborat 12 430 ta bitim, sanoat sohasidagi emitentlar qimmatli qog‘ozlari bilan 30,55 % dan iborat 10 026 ta bitim va bank sohasi qimmatli qog‘ozlari bilan 23,44% ni tashkil etgan 7 692 ta bitimlar qayd etilgan. Jumladan, 2019-yilda fond birjasida savdo aylanmasi 578,15 mlrd. so‘mga yetgan bo‘lsa, 2022-yilda esa, fond birjasida savdo aylanmasi 4705,79 mlrd. so‘mni tashkil etganligi ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi, 2022-yilda iqtisodiyotning 10 ta turli xil soha aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlari bilan birja savdolari amalga oshirildi. Eng ko‘p bitimlar bank va sanoat sektorlari emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan amalga oshirildi. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan 26 042 ta bitim tuzildi, bu birja bitimlari umumiy sonining 32,26 foizini tashkil etdi. Sanoat tarmog‘idagi 9 ta emitentlarning qimmatli qog‘ozlari bilan 21 247 ta bitim tuzildi (birja bitimlari umumiy sonining 26,32 foizi). Birja operatsiyalari umumiy hajmining 47,94 foizi bank sektori qimmatli qog‘ozlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Ushbu soha emitentlari bilan tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 2,31 trillion so‘mni tashkil etdi. Qurilish sektori emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 1,92 trillion so‘mni tashkil etdi va bu umumiy birja hajmining 39,96 foizini tashkil etdi. Aksiyadorlik jamiyatlarining agrosa-

1 “Toshkent” Respublika fond birjasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



noat va boshqa tarmoqlardagi qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar mos ravishda 237,93 mlrd so'm va 169,31 mlrd so'mni tashkil etdi. Eng kam miqdordagi bitimlar aloqa va transport sohasidagi qimmatli qog'ozlar bilan tegishli ravishda 69,29 mln va 18,09 million so'mlik bitimlar tuzilgan.

Birja savdo aylanmasining keskin ortib ketishiga sabab, 2022-yilda 100 ta emitentning aksiyalari bilan jami 1,17 trln so'mlik 80 574 ta bitim tuzildi. Bitimlarning eng katta hajmi "Kapitalbank" ATB /KPBA/oddiy aksiyalari bilan tuzilgan 786,90 mlrd so'mlik bitimlarga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, uzokaralar auksioni rejimida, hajmi chiqarilgan qimmatli qog'ozlar umumiy sonining kamida 1% ni tashkil etadigan qimmatli qog'ozlar paketlari bilan bitimlar tuziladigan bo'limda, ko'rib chiqilayotgan davrda 27 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bilan umumiy qiymati 3,53 trln so'mlik 78 ta bitim qayd etildi. Bitimlarning eng katta hajmi "Ohangaronsement" AJ /OHSM/ odiy aksiyalari bilan tuzilgan bo'lib 1,90 trln so'm yoki umumiy birja hajmining 39,38%ni tashkil etdi. "Kafolat sug'urta" AJ /KFLT1/. Ma'lumki, xalqaro amaliyotda fond bozori aktivlarining oldi-sotdisi ikkilamchi va birlamchi bozorlarda amalga oshiriladi. Bu jarayonni Respublikamiz misolida ko'radigan bo'lsak, u quyidagi ko'rinishga ega (2-rasm).



2-rasm: "Toshkent" Respublikasi fond birjasida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini dinamikasi, mlrd. so'm²

2-rasm ma'lumotlarini shuni ko'rsatadiki, 2018-yilda "Toshkent" Respublikasi fond birjasida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini aylanmasi 433,15 mlr.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 2,7 barobarga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablardan biri, 2022-yil davomida 114 ta emitentning 36,15 mlrd dona qimmatli qog'ozlari bilan jami 4,82 trln so'mlik 80 723 ta bitim tuzildi. Eng katta hajmdagi bitimlar yanvar oyida qayd etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 3,04 trillion so'mga yetgan. Shuningdek, 2022-yilda aksiyalar bozorida 110 ta emitentning 36,15 mlrd dona qimmatli qog'ozlari bilan 80 652 ta bitim qayd etildi. 2022-yilda tuzilgan bitimlar soni bo'yicha eng yuqori natijani "O'zmetkombinat" AJ odiy aksiyalari ko'rsatdi, emitentning odiy aksiyalari bilan tuzilgan bitimlar umumiy birjada tuzilgan bitimlar sonining 15,48% ni tashkil etdi. "O'zbekiston Rupbulikasi xom-ashyo birjasi" AJ odiy aksiyalari bilan 7 535 dona bitim tuzilgan bo'lib, bu umumiy bitimlar miqdorining 9,35% ni tashkil etdi. Tijorat banklarining odiy aksiyalari bilan quyidagi miqdordagi bitimlar tuzilgan bo'lib, ATB "Hamkorbank" 7 723 bitim (umumiy bitimlar sonining 9,58%), ATIB "Ipoteka-bank" 6 387 bitim (umumiy bitimlar sonining 7,93%), ATB "O'zbekiston sanoat – qurilish banki" 4354 bitim (umumiy bitimlar sonining 5,40%). Top 10 talikning quyi o'rinlarini "Olmaliq KMK" AJ va "O'zmetkombinat" AJ imtiyozli aksiyalari egallab, ular bilan mos ravishda 2292 va 2 249 ta bitimlar tuzilgan, bu umumiy birja bitimlar miqdorining 2,84% va 2,79% ni tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish mexanizmiga oid amalga oshirilgan tadqiqotlarimizga asoslangan holda, ilmiy tadqiqot ishimizga quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirdik.

Birinchiidan, O'zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini infratuzilmasini modernizatsiya qilish lozim hisoblanadi. Natijasida, maksimal likvidlik, shaffoflik va raqobatbardosh narxlarni ta'minlash uchun qimmatli qog'ozlar savdosini bitta savdo maydonchasida (fond birjasida) birlashtirishga olib keladi.

Ikkinchiidan, davlat va korporativ obligatsiyalardan tortib aksiyalargacha bo'lgan barcha qimmatli qog'ozlar chiqarilishi, ro'yxatga olinishi va saqlanadigan yagona markaziy depozitariyni tashkil etish lozim. Buning natijasida, xorijiy investorlarni jalb qilish uchun O'zbekiston moliya bozorida global kastodian banklar va Raiffeisen

2 "Toshkent" Respublika fond birjasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



Bank International, Citi, Bank of New York Mellon, Clearstream va boshqalar kabi xalqaro depozitariylarning mavjudligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'Hara, Maureen, 1995, Market Microstructure Theory, Cambridge MA: Blackwell.
2. Fama, Eugene (1970). "Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work". Journal of Finance. 25 (2): 383–417. doi:10.2307/2325486. JSTOR 2325486.
3. Foucault, T., Pagano, M., Roell, A., 2013. Market Liquidity Theory, Evidence, and Policy. Oxford University Press, New York.
4. Yakov Amihud & Haim Mendelson, 2012. "Liquidity, the Value of the Firm, and Corporate Finance," Journal of Applied Corporate Finance, Morgan Stanley, vol. 24(1), pages 17–32, March.
5. Avellaneda, Marco, and Sasha Stoikov. 2008. "High-Frequency Trading in a Limit Order Book." Quantitative Finance 8 (3): 217–24. <http://www.informaworld.com/10.1080/14697680701381228>.
6. Ш. Ш. Шохазамий "Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане". Автореферат ст. 1–42, Т; 2011г.
7. Ш. Ш. Шохазамий "Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане". Автореферат ст. 1–42, Т; 2011г.
8. Л. И. Бутиков "Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане" Автореферат Т,-2008, ст.1–41.
9. N. G'. Karimov "Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari" Avtoreferat, T,- 2007, bet.1–40.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

